


TAQDIMOT

17 Mavzu: Men sevgan asar. Abdulla Qodiriyning “O’tgan Kunlar” romani. Badiiy tasvir vositalari

Bajardi: Saparbaev I.

Tekshirdi: Raximova K.

Guruhan: 113



Reja:

1. Abdulla Qodiriy “O’tgan Kunlar”
 - 1.1 Romanning yaratilish tarixi.
 - 1.2 Otabek va Yusufbek hoji obrazlari.
 - 1.3 Otabek va Kumush sevgisi.
 - 1.4 “O’tkan kunlar”-hayot haqiqati aks etgan romandir.
2. Badiiy tasvir vositalari
3. Foydalangan adabiyot

- Abdulla Qodiriy ijodining muhim xislati-tarixiy burilishlar davrida xalq ichida bo'layotgan katta xodisalar tasviriga murojaat yetishidir. Bu xislat, ayniqsa uning yirik tarixiy prozasida yaqqol ko'rindi. 1922 yilda parchalari bosilib, 1926 yil boshlarida nashrdan chiqqan «O'tgan kunlar» romani yaqin o'tmishning yeng og'ir, yeng qora kunlari bo'lган «Xon zamonlariga» bag'ishlangan yedi. «O'tgan kunlar» ham mazmun, ham shakl, ham uslub jihatidan butun O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida tom ma'noda novator bo'lib, katta ijtimoiy qiziqish tug'dirdi.
- Mashhur sharqshunos E.YE.Bertels «O'tgan kunlar» munosabati bilan «Evropa romani, ingлиз romani, rus romani bilan bir qatorda o'zbek romanining yaratilganligi» ni yozgan yedi. Ulkan qozoq yozuvchisi, o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyondasi Muxtor Avezov fikricha, «O'tgan kunlar» romani bilan Abdulla Qodiriy 20-yillarda «Sharqning yeng ulkan yozuvchisi bo'lib qolgan yedi».
- Abdulla Qodiriy ongli ravishda novatorlik yo'li bilan bordi va izlanishlari samarali bo'ldi. U o'zbek romanchilik mifikabini yaratdi.
- «Modomiki biz yangi davrga oyoq qo'ydik, - deb yozgan yedi u o'sha romanga so'z boshisida-bas, har yo'sinda ham yangi davrning yangiliklari ketidan yergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, romanchilik va hikoyachiliklarda ham yangi asarlar yaratishga, xalqimizni shu zamonning «Tohir va Zuhra» lari, «Chor darvesh» lari, «Farhod va Shirin» lari, «Bahromgo'r» lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his yetamiz». Yozuvchining fikricha «O'tgan kunlar» romani «yangi zamon romanchiligi bilan tanishuv yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'rirog'i, bir havas» yedi. Ammo o'zbek adabiyotida to'ng'ich roman bo'lган-«O'tgan kunlar» bir milliy adabiyotda hozirgi zamon ma'nosidagi etuk adabiyotimizning g'alabasigina bo'lib qolmay, butun o'zbek mumtoz adabiyotidan abadiy o'rinni oldi. «O'tgan kunlar» da o'zbeklar va boshqa

- O'rta Osiyo xalqlari hayotining XIX asr birinchi yarmidagi manzarasi yoritilgan. Feodallik zulmi, hukmdorlarning xalqlar va qabilalar orasiga nizo solishi, ularni bir-biriga tezlashi, buning fofiali oqibatlari, bu fofiani ko'rib, mamlakatni manfaatparast xonlar va beklar beboshligidan xalos qilishni orzu yetgan ilg'or kishilarning boshiga tushgan kulfatlar «O'tgan kunlar» ning mazmunini tashkil yetdi.
- Davr uchun juda xarakterli va ijtimoiy taraqqiyotga bevosita aloqador voqealar Abdulla Qodiriy tomonidan san'atkorona tasvirlab bergani uchun «O'tgan kunlar» o'zbek xalqi va O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida yangi davr ochdi.
- O'tmish xodisalariga asar yaratilgan zamonning ilg'or mafkurasi nuqtai nazaridan baho berishga intilish Qodiriy ijodiyotidagi tub burilishlaridagi alomatlaridan biridir. Turkistonda feodal mustamlaka zulmini ag'darib tashlab yangi mustaqil hayot qurishga intiladi.
- «O'tgan kunlar» o'tmishni ana shu yangi hayotga intilish nuqtai nazaridan baholash ruhi bilan sug'orilgan Abdulla Qodiriy feodal davrni mehnatkashlar uchun zulm, baxtsiz xorlik davri sifatida qoralaydi. O'tmishga shunday baho ma'rifat jihatdangina yemas, ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham katta aktual ahamiyatga yega yedi. Yangicha davrga intilish, xalq ongida o'tmishningadolatsizliklari haqida chuqur tushuncha hosil qilish bilan ham bog'liq yedi. Zamonasining ijtimoiy yehtiyojlarini sezgan Abdulla Qodiriy uchun birdan-bir to'g'ri yo'l-haqqoniy tasvir yo'li bilan boradi. Abdulla Qodiriy davrning hayot manzarasini, oddiy kishilarning taqdirini tasvirlash orqali yaratishi xarakterlidir, bu yesa etuk romanchilik xususiyatidir.
- «Tarix bizga vog'ealarni, uni avra tomonidan, sahma tomonidan ko'rsatadi. Ichkarida bo'layotgan xodisalar ustidagi pardani ko'tarib tashlaydiki, bu xodisalar orqasida haligi bizga ko'rsatilayotgan voqealar manbai ham, ularning kundalik oddiy hayotda qanday ro'y berishi ham bekinib qoladi.



- Roman tarixiy faktlarni aytib berishdan voz kechadi va voqealar romanning mazmunini tashkil yetuvchi xususiy voqealarning munosabati bilan tilga oladi, ammo shu shaxsiy voqealarning orqali bizning ko'z oldimizda tarixiy voqealarning ichki faktlarini, ularning astarini olib beradi.... Mamlakat hayoti va asarning koloriti, ularning odatlari va xalqlari tarixiy romanning har bir xususiyatida (garchi bu uning maqsadi bo'lmasada) yaqqol ko'rinish turadi. Shuning uchunham tarixiy roman-fan sifatida tarixning san'at bilan qo'shilib ketgan nuqtasidir, tarixning qo'shimchasidir; go'yoki uning boshqa tomonidir.
- Abdulla Qodiriy o'z tasvirida tarixiy faktlarga, hatto ayrim shaxslar Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek va boshqalarni tasvirlashga suyangan holda, davr tavsifi, «jamiyat hayotining poyetik analizi» ni romanning markaziy qahramonlari Otabek va Kumushning taqdirini tasvirlash orqali beradi. Otabek va unga hayrihoh kishilarning taqdiri juda murakkab, ba'zan fojalidir. Bu ayniqsa romanning bosh qahramonlari taqdiri uchun xarakterlidir. Otabek, uning otasi YUsufbek Hoji, Kumushbibi va boshqalarning taqdiri orqali o'quvchini o'z davrining deyarli hamma ijtimoiy tabaqalari hayotiga olib kiradi.
- Xon Xudoyorxonidan boshlab qul Hasanligacha jamiyatning turli tabaqalari vakillarining hayoti, bu davrda hukmdorlar va tobellar, xotinlar bilan yerkaklar, yoshlar bilan keksalar orasidagi munosabatlar, kishilarning turmushi va ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlari asar davomida lavhalarda gavdalanadi.
- Abdulla Qodiriy xarakterlarning ishonchli va yorqin tasvirlanishiga alohida ye'tibor beradi.
- Boylar va savdogarlar muhitidan Otabek, YUsufbek Hoji, Qutidor, Ziyo Shoxchi, Homid va boshqalar; feodallar muhitidan Azizbek, Musulmonqul, O'tabboy qushbegi va boshqalar; mehnatkashlar muhitidan (ommaning tasviridan tashqari) Usta Olim, Usta Parpi va Hasanali hamda boshqalarning xarakterlari romanda juda ustalik bilan yaratilgan. Xarakterlar tasvirida yozuvchi, hayot haqiqatiga mos ravishda ularning xilma-xilligi, bir-biriga o'xshamasligini ko'rsatishga intiladi va shu bilan hayotning rang-barang yekani haqida tasavvur uyg'otadi.

- Agar faqat boyvachchalar doirasini olsak, Otabek bilan Homid xarakterlari shunchalik farqliki, ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lib maydonga chiqadilar. Xotin-qizlardan Kumush, Zaynab, Xushro'y, O'zbekoyim, Oftoboyim bir ijtimoiy muhit va bir jinsga mansubligiga qaramasdan bir-biridan juda farqli, yorqin obrazlardir. Abdulla Qodiriy xarakterlar tasvirida ularning «tabiiyligi» ga katta ye'tibor berar, hatto satira borasida ham «adabiyotda bir necha xil kulgi yo'llari bo'lsa ham... lekin yeng mo''tabari xarakter kulgisi» yekanini uqtirib berar yedi.
- «O'tgan kunlar» qanchalik novatorlik xarakteriga yega bo'lmasin, milliy adabiyotning asriy an'analaridan ajrab qolmagan, ularning yeng yaxshilarini rivojlanТИrish ruhida yozilgan.
- Abdulla Qodiriy o'z romanini Sharq xalqlari tomonidan necha asrlar davomida sevib kelingan «Tohir va Zahra», «Farhod va Shirin» larga o'xshatgani bejiz yemas. Abdulla Qodiriyga mazmundan ajrab qolgan shakl, o'quvchining tabiiy ta'b yehtiyojlari ko'zda tutilmay yozilgan asar, bemaqsad va bema'ni «novatorlik» dan yot yedi. O'z romanida adabiyotning an'analaridan «etarli darajada uzoqlashmagani» ni ayb hisoblagan tanqidchilarga qarata yozuvchi aytgan yedi.
- Biz ko'pchillik ishchi va dehqon ommasi uchun yozar yekanmiz, «yeski usul bilan yozadi, binoan alayx bu yozuvchiga birinchi nomerni bermaymiz» deb qilingan tasdiqlardan qo'rqlaymiz.
- Sovet adabiyotining ayrim vakillari turli formalistik «oqimlar» ta'siriga tushganidan kulib, A.Qodiriy «Mushtum» jurnaliga she'riy hajviyasida quruq shakliy «izlanishlar» yo'liga tushib ketish halokatli deb ye'lon qilgan yedi. «O'tgan kunlar» ning mumtoz adabiyot va xalq ijodi bilan bog'lanadigan tomonlari-hayotdagi yorqin shaxslarga ye'tibor berish, ularni adabiyotga bosh qahramon sifatida olib kirish va yana ham «ko'tarib» tasvirlashdirki, buning natijasida Abdulla Qodiriyning ijobiy qahramonlari kuchli jozibadorlik kasb yetadilar. Otabek o'z davrining ilg'or kishisi, u mamlakat va xalq taqdirini o'ylaydi, feodal zulmning halokatli yekanini

- ko'rib, undan xalos bo'lish yo'llarini axtaradi va zamonasi kishilarining ko'pchilligiga yordam qo'lini cho'zishga harakat qiladi. Qodiriylar zamonasi kishilarining ko'pchilligiga xos bo'lган milliy va diniy cheklanganlik illatlarini engib, ijobiy namunani «yot xalq» dagi idora usulinigina havas qiladi va savdo ishlari bilan Shamayga borganda uning idora uslubini ko'rib, Turkistonda ham xuddi shunday idora uslubi bo'lishini hohlaydi. Ziyo Shohchi oilasida bo'lган yig'ilishda shu masalaga to'xtalib o'tadi. Otabek haqqoniy va samimiyligi so'zlariga ahli hayron qoladi.
- Rus shaharlariga borib, savdo qiluvchilar Turkistonda juda oz hisobda bo'lib, ularni ko'rGAN Otabek majlisga tansiqlandi. Ruslar to'g'risida allaqanday rivoyatlar yeshitib yurgan qutidor va ZiyoShohchining Otabekdan haqiqiy holni bilgilari kelib, undan Shamayda ko'rgan-kechirganlarini so'radilar. Otabek Shamay xotiralarini so'zlab berdi. Ruslarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotlarini yeshitguvchilarni hayratda qoldirib, ortiq tafsiloti bilan aytib chiqqach:
- -Shamay bormasdan ilgari o'z hukumatdorligimizni ko'rib, boshqalar ham shundaydir deb o'ylar yedim, - dedi Otabek – lekin Shamay menim bu fikrimni ost-ust qilib, o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi. Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizning xuddi bir o'yinchoq bo'lganligini iqror yetishga majbur bo'ldim.


- Bizning idoraliq bukungi tartibsizligi bilan keta bersa, hammamizning nima bo'lishiga aqlim etmayd qoldi. Shamayda yekanman qanotim bo'lса, vatanimga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'r dasiga tushsamda, o'risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasada, barcha yelga yorliq yozib, o'risning idora tartibini dasturamol yetishga buyursa, men ham bir oy ichida o'z yelimni o'risniki bilan bir xil qatorda ko'rsam. Ammo, o'z yelimga qaytib ko'rdimki Shamayda o'ylaganlarim, oshiqqanlarim shirin bir hal yemish! Bu erda so'zimni yeshituvchi birov ham bo'lmadи, bo'lsalar ham: «Sening arzingni shu xonlar yeshitmадим, shu beklar ijro qilадим?» deb meni ma'yus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam ham, so'ngidan to'g'ri so'zni aytganliklarini bildim. Darhaqiqat, mozoristonda «hay-yu alal-falah» xitobini kim yeshitar yedi!



- Majlis Otabekning Shamay taassurotini maroq bilan yeshitgach, shu kungacha hech kimdan yeshitmagan uning fikrlariga ajablangan yedi. Istiqbol tuyg'usi tushiga ham kirmagan bu kishilar Otabekning dardni dildan chiqarib aytgan gaplaridan hissiz qolmadilar.
- Otabekning zehnini, aql-zakovatini ko'rghan majlis ahli uni xon qiziga munosib ko'rishadi. Otabekga berilayotgan tarifu-tavsiflar Homidning ko'nglini g'ashlatardi. Qutidorning «uylanganmi» degan savoli yanada og'ir ahvolga soladi.
- Otabekning shu yoshgacha hali hech kimga ko'ngil bermagan, faqatgina uning ma'sum muhabbatiga Kumushgina sazovar bo'ldi.
- Otabek tahorat olish uchun Qutidorning tashqarisiga kirdi. Bu yo'lni unga do'kondor ko'rsatgan yedi. Shu vaqt tasodifan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib keluvchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy yemas, g'ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-biridan birmuncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chigandek bo'ldi, engilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotgan qirq kokillari to'lqinlandi. Kumush ichkariga qarab chopar yekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va bu qarashda unga engilgina bir tabassum ham hadya qildi. Kumush ichkariga ichkariga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib qoldi. Oxirida ko'zini katta ochib, o'tgan daqiqada uchragan hayoliy go'zalni istab hayollandi. Biroq haqiqat boshqacha yedi. Tahorat olmoq uchun ariq bo'yiga o'tirdi, ammo ko'zi hamon yasharingan yo'lakda yedi. Tahoratlanib bo'ldi, yana ko'zini o'sha tarafdan uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana yo'l ustida to'xtab qoldi, yashiringan go'zal ikkinchi qayta ko'rinnadi, yehtimolki Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tomosha qilar yedi. Otabek Kumush hayoli bilan uyqusiz kunlarini o'tkazar, bunday kunlarning birida Hasanali payqab qoldi. Akram hoji va Hasanali kelib Qutidorning qizi Kumushga Qutidornikiga bordi. Qutidorning roziligi bilan Kumush va Otabeklarning nikoh to'ylari bo'lib o'tdi.

- Otabek Marg'ilon va Toshkent o'rtaida bordi-keldi ko'p bo'lib qoladi. O'zbek oyim o'g'lini qizg'anishmi yoki o'g'lidan ajralib qolaman deb o'yladi shekilli YUsufbek Hojiga Otabekni uylantiramiz deb turib oldi. O'zbek oyim yellik besh yoshlar chamasi, chala-dumbul tabiatli bir xotin bo'lsa ham, ammo yeriga o'tkirligi bilan mashhur yedi. Uning o'tkirligi yolg'iz yeriga yemas, Toshkentxotinlariga ham yoyilgan yedi.
- Bittayu bitta o'g'il Marg'ilon degan joyda, allakimning qo'lida, asli noma'lum kishilarining qiziga uylansada, bugun yerta o'g'limning orzu-havasini ko'raman deb yentikib o'tirgan va o'g'il boqib katta qilgan ona-O'zbek oyim ikki qo'lini burniga tiqib qola bersin...
- Bu xabarni Hasanalidan yeshitgan kunlari bu ishga chidab turolmadi. «YEndi menga bundog' o'g'il kerak yemas. Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim. YEndi Toshkentga kelmasin u o'zboshimcha betiyiq» deb baqirib-chaqirib, yig'lab-siqtab, dardu hasratni boshiga kiyib oldi.
- Uch oylar ko'rmagan o'g'lini quchog'iga bosib ko'rishmak o'rniga undan yuzini o'girib, sen kimsan, keldingmi deb so'ramadi va salomiga alik ham olmadi, go'yo uxlamoqchi bo'lган tovuqdek hurpayib oldi. Otabek onasining araziga allaqachon tushungan, ham shu holni Marg'ilondayoq kutgan yedi.

- To'g'ri gap: Otabekning Marg'ilonga uzoq bormay turishi mumkin yemas yedi. Oradan ikki hafta o'tar o'tmas uni-buni bahona qilib otasidan ruxsat olib, O'zbek oyimga bildirmay Marg'ilonga jo'nab ketar yedi. O'zbek oyim «o'lganning ustiga chiqib tepish» qabilida bor g'azabini yeriga to'kar yedi. «Siz qarib yesingizni eb qo'yibsiz, o'g'lingizni Marg'ilonlikka topshirib qo'yib, yana yel ichida boshingizni ko'tarib yurmoqchi bo'lasizmi?» der yedi. YUsufbek hoji bu gaplarni og'ir vazminlik bilan enga olardi.



- Otabek Toshkentga qaytib kelib «YEndi araz bitgandir» degan o’yda onasiga salom berar, araz bitish qaerda, O’zbek oyimning o’g’liga qarshi kinoyasi bir necha qator ortgan, ammo bu gal salom beruvchiga bir qaraydi-da, «o’g’lim, menga salom berib nima qilasan, Marg’ilonlik onangni duosini ol» deb yuzini chetga o’girar yedi. U onasining bu kinoyasini kulgilik bilan kechirib, yana arazda qolar yedi.
- Nihoyat, oradan bir yil chamasi vaqt o’tib, Marg’ilonga qatnash etti-sakkizga etgach O’zbek oyimning g’idi-bidisi bilan bo’lsa kerak, YUsufbek hojida ham bir oz o’zgarish ko’rila boshlaydi. Xotinining «o’g’il o’stirishni, o’g’il tiyishni bilmaysiz» deb siltashiga «Nima qil deysan yendi?» deb so’raydi.
- -Biz Otabekni Toshkentdan uylantirsak, Marg’ilonga yugurishidan qutilamiz. Suv quygandek tinar qolar, Marg’ilon balosini yesidan chiqarar deydi.
- -O’g’ling qaytsinchi bo’lmasa.
- O’zbek oyim YUsufbek hojidagi moyillikni ko’rib qiz axtarishga tushadi, ko’pxonadonlarda bo’ladi. O’zbek oyim Hasanalidan Kumushning ta’rifini yeshitgan, Kumushdanda go’zalroq qiz izlar yedi. Unga Olim ponsadning qizi yoqib tushadi. YUsufbek hoji va O’zbek oyim kelishib seni Zaynabga uylantirdik deydi.
- Bir oylar vaqt o’tgach Otabek qaytib keldi. Onasining arazlardan holi bo’lganligi, yaxshi keldingmi deb kutib olishlari Otabekning ko’nglini g’ashlatadi, o’zini ota-oansidan uzoqqa olishga harakat qiladi.
- Lekin ota-onasi uni ushlab pandu-nasihatlar bilan dilidagi bor gaplarni aytadi.
- Shunda Otabek onasiga hech narsa demay otasiga ma’nolik qaradi, otasi uyatlitsimon «shundog» deb qo’ydi. Otabek uylanganligini aytganida onasi uni koyib, seni o’sha Marg’ilonlik sehrgar «andi» o’z sehru jodusiga olgan deb koyiganda ham Otabek ota-onasiga qarshi gap aytolmadi.

- YUsufbek hoji o'g'liga:
 - «Bizni kuttirma, o'g'lim!», - deganda Otabek otasiga:
- Men sizlarning orzularingizni bajarishga, agar xursandchililingiz shu bilan bo'lsa har vaqt hozirman. Lekin bo'lajak keliningiz qoshida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz deydi.
- O'zbek oyim o'g'liga:
 - «Mayli, bolam, bu yog'ini sen hozir o'ylamay qo'y!», - dedi.
- Lekin Otabek to'ydan oldin Marg'ilonga borib kelishga keyin to'y taraddusini ko'rishga rozilik berdi. O'zbek oyim bunga rozilik berdi.
- Otabek Marg'ilonga borib Qutidor, Oftob oyim, Kumushdan rozilik olib o'z ota-onasining orzusini amalga oshirishga ruxsat berdi.
- Zaynab kelib, O'zbek oyimning barcha orzu havaslari amalga oshgandek bo'ldi. Otabek xuddi oldin ta'kidlaganidek Zaynabning oldida jonsiz bir haykal yedi.
- Otabek Kumushga yozib turadi. Lekin Otabekning uylanganidan xabar topgan Homid o'rtaga tushadi. Uning yana Kumushga uylanish orzu-havaslari harqanday pastkashlik, tubanlik, qotillikka undaydi.
- Otabekning Kumushga yuborayotgan xatlarini xufyona olib uni butunlay o'zgartiradi. Hatto o'z manfaati yo'lida taloq xatini yozishga ham boradi. Bu gaplardan bexabar Otabekning ahvolini ta'riflash qiyin. Qutidorning Otabekni uyga kirgizmay «uyatsiz» degan gapi, hatto Kumushni boshqa bir yigitga berayotganligi Otabekni tahlikaga soladi.
- Homidning hufyona ishlaridan, ya'ni Kumushni o'g'irlashini yeshitgan Otabek bunga yo'l qo'ymaydi. Homid va uning hamtovoqlarini yo'q qiladi va Usta Olimdan Qutidor va Kumushga xat yuboradi. Otabek har bir kitobxondaadolat, mehr-muhabbat urug'larni undiradi. Kumush va Qutidor Otabek oldida yalingan bir ahvolga tushadi. Qutidor va Kumush Toshkentga xat yuborishadi. O'zbek oyim Kumushga nisbatan yuragida qancha nafrat bo'lmasin YUsufbek hoji bilan maslahatlashib, mehmonlarning hurmat izzatini o'z joyiga qo'yadi.

- O'zbek oyim qotib qolgan xarakter yemas. Voqealar jarayonida, muhit ta'sirida mana shu o'jar ayol ongida, tabiatida o'zgarishlar sodir bo'ladi; chunonchi, bir vaqtlar orqavarotdan «andi» sanalib yurgan Marg'ilonlik keliniga ilk bor duch kelganda mehri jo'shib, uni mahkam bag'rige bosadi, yuzidan o'pib, negadir yig'laydi, yendi Zaynab qolib Kumush tomonga o'tib ketadi.
- Romanda xalqimiz udumlariga xos nafosat, hassoslik bilan yanada uyg'unlashadi. Ba'zi misollar: YUsufbek hojining kelini Kumush bilan ilk bor uchrashuvi lavhasi shunday chiziladi: «Kumush uyalib zo'rg'agina salom berdi va YUsufbek hojining yaqiniga kelib bo'yin yegdi. Hoji qo'li bilan Kumushning elkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tekkizib olgan o'z qo'lini o'pdi».
- Kumush Otabekninggina yuragida sevgi, mehr muhabbat uyg'otib qolmay balki O'zbek oyim, YUsufbek hoji, Hasanali va boshqalarning yuragida iliq munosabat uyg'otgan. Kumushni Marg'ilonga ketishga O'zbek oyim, YUsufbek hojilar ruxsat bermaydi. Kumushda ham ketish istagi tug'ilmaydi. Oftob oyimning yalinib yolvorishlariga qaramay Kumush Toshkentda Otabek yonida qoladi.
- Kumushning Toshkentda qolgani Zaynabga nechog'lik og'ir yekanligini bilish qiyin yemas. Kumush kelgan kundanoq Otabekdagi jonlanish, YUsufbek hojining Marg'ilonda shunday kelinim bor yekan, bilmay yurgan yekanmiz degan so'zлari, Zaynabga qanchalik og'ir yekanligini tasavvur qilish kerak. O'zbek oyimning Zaynabga bo'lган munosabati o'zgaradi. Zaynab o'tirsa o'poq, tursa so'poq, undan faqat xato va kamchilliklar axtaradi. Hammaning tilida Kumush. Kumush va Zaynabning o'zaro urushlari Otabekni ham qiyin ahvolga solib qo'yadi. YUsufbek hoji Zaynab bilan Kumushni xonasiga kirgizib pand-nasihat qiladi, ikkisini yarashtirib qo'yadi. Bu mojarolar davom yetsa ikkalalaringdan bittalarining javoblaringni beraman degan Otabekning achchiq so'zлari Zaynabga qattiq ta'sir qilardi. Chunki Zaynab bilardi, Otabek Kumushni qanchalik sevishini. Otabekning bu gaplari Zaynabga aytilayotgandek jo'yilar yedi.
- Ayniqsa, Zaynabning ayollik sha'ni, nafsoniyati tahqirlanganligi, javobsiz sevgi alamida o'rtanib, sevmagan odam Otabek quchog'iga o'zini tashlab «jonsiz haykalni» o'pib, quchoqlab yolvorishlari manzarasini ko'rganda Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini bilib o'quvchi unga behad achinadi.

- Kumushning xomiladorligini yeshitgan Otabek, YUsufbek hoji, O'zbek oyim Kumushga bo'lган munosabatlari yana bir parda oshadi. Buni yeshitgan Zaynab oldin kundoshlik balosiga chidagan bo'lsa, bu xabarni yeshitib yanada yezildi.
- Biz Zaynabga ham, Kumushga ham, Otabekka ham oson tutolmaymiz. Ota-onra ra'yি-orzusi tufayli ularning taqdiri chigallashib, baxti xazon bo'layotganini ko'rib, tushunib turamiz, buning uchun behad achinamiz. Kundoshlik muhitida bo'sh-bayov, mut'e Zaynab sekin-asta «haqi» ni tanib, qasoskorga aylana boradi. Biroq u hali qotil darajasiga borgan yemas. YEhtimol, yegachisi Xushro'y uning ko'zini ochmaganida, o'ziga «o'zligini anglatmaganida» bir umr kuydi-chiqdilar ichida Kumush bilan murosa qilib o'tavergan bo'larmidi. Demak, Zaynab ko'ngliga g'ulg'ula solgan Xushro'y ham muayyan darajada Kumush halokatiga sababchi. Biroq yozuvchi bu ayolni ham oshkora qoralamaydi. Aksincha, xolis turib uning yegachisi Zaynabdan keskin farq qiladigan sajiyasini ta'riflaydi, ichki va tashqi qiyofasini chizadi, uning o'zigaxos hayot, yashash aqidasini ko'rsatadi. Ayni paytda Xushro'yning isyonkor ona hatti-harakatlarini ham to'la oqlay olmaymiz. Birovning oilasi vayronasi ustida tiklangan oilani haqiqiy oila, shafqatsizliklar yevaziga topgan baxtni chinakam baxt deb bo'lmaydi... Qodiriy realizmining kuchi avvalo ana shunda-hayotni, odamlar turmushi, taqdiri, tabiat, ular amal qiladigan aqidalarni bor holicha butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatganligidadir.
- Qish kunlarining birida oy-u kuni etgan Kumush dard azobini chekayotgan bir vaqtida O'zbek oyim Zaynabga atala qilishni buyuradi. Zaynab bunday qulay vaziyatdan foydalanib atalaga zahar soladi. Kumushning ko'zi yoriydi. YUsufbekhoji oilasida yangi tug'ilgan chaqaloq ovozi yangraydi. Shunday vaqtning birida Otabek tush ko'radi, tushidan juda xavotirga tushadi. Otabek o'g'illi bo'lganini yeshitib benihoya xursand yedi. YUsufbek hojining xursandchiligi dunyoga sig'mas yedi. Faqatgina Zaynab yuragidan kechayotgan dard, alam, g'azabini bilish qiyin yemas yedi. Bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmadi. Ataladan tanavvul qilgan Kumushning a'zoi badani qaqshayotganini ko'rgan O'zbek oyim qiyin ahvolga tushadi. Otabek boyagini ota bo'lganligi bilan faxrlanayotgan bo'lsa, yendi Kumushning qiynalishini ko'rib, nima egan yedi deb so'radi. Shunda atalani ko'rsatishdi, tabib atalani tekshirib ko'rib Kumushning zaharlanganligini aytdi.

- Qish kunlarining birida oy-u kuni etgan Kumush dard azobini chekayotgan bir vaqtida O'zbek oyim Zaynabga atala qilishni buyuradi. Zaynab bunday qulay vaziyatdan foydalanib atalaga zahar soladi. Kumushning ko'zi yoriydi. Yusufbekhoji oilasida yangi tug'ilgan chaqaloq ovozi yangraydi. Shunday vaqtning birida Otabek tush ko'radi, tushidan juda xavotirga tushadi. Otabek o'g'lli bo'lганини yeshitib benihoya xursand yedi. Yusufbek hojining xursandchiligi dunyoga sig'mas yedi. Faqatgina Zaynab yuragidan kechayotgan dard, alam, g'azabini bilish qiyin yemas yedi. Bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmadi. Ataladan tanavvul qilgan Kumushning a'zoi badani qaqshayotganini ko'rgan O'zbek oyim qiyin ahvolga tushadi. Otabek boyagina ota bo'lганligi bilan faxrlanayotgan bo'lsa, yendi Kumushning qiynalishini ko'rib, nima egan yedi deb so'radi. Shunda atalani ko'rsatishdi, tabib atalani tekshirib ko'rib Kumushning zaharlanganligini aytdi.



- Butun oila bir zum sukut ichida qoldi. Otabek atalani kim qildi deb so'radi, unga atalani Zaynab qilganligini aytishdi. Otabek qattiq g'azab ichida Zaynabni chaqirdi, unga atalani egin deb baqirdi. Zaynab o'zini chetga oldi. Otabek Zaynabni uch taloq qildi. Shu payt yeshikdan YUsufbek hoji keldi. Zaynabga ket bu erdan, hayf sendek xotinga deb haydadi.
- Odamni titratib yuboradigan yana bir yorqin milliy lavha: Kumush zaharlanib o'lim to'shagida yotibdi. Qaynotasi YUsufbek hoji Kumushning boshiga kelib o'tirdi. Kelinning ko'zi yumiq, sochlari yuzi ustida parishon. Hoji kelinning sochlarini tuzatib, manglayiga qo'lini bosdi, «Oyim... oyim» deb murojaat yetadi. Bunaqa tig'iz holatda yoshi ulug' odam, qaynotaning kelin yoniga kelib parishon sochlarini tuzatishi, manglayiga qo'lini qo'yib hol-ahvol so'rashi tabiiy bir hol. Shunga qaramay Kumush ko'zini ochib besaranjom unga nazar tashlaydi va tanib... qo'zg'olmoqchi buldi. Qarangki, behush yotgan kelin bir dam o'ziga kelib qaynotasini tanib, uning oldida aftodhol hijolat chekib, o'sha nochor holatda ham odob bilan qo'zg'olmoqchi, o'midan turmoqchi bo'lidi.
- Kumushning ahvoli borgan sari og'irlashdi va kuchli qonli qaytlardan keyin bu dunyonni tark yetdi. Zaynab nima bo'ldi degan savollar tug'iladi. U Kumushning hayotiga nuqta qo'yibgina qolmay, balki o'zining baxtli hamda baxtsiz kuniga nuqta qo'ydi. U telbagा aylanib, men Kumushman deya qabristonlarda kezib yurardi.
- Otabek yesa o'g'li Yodgor bilan Marg'ilonga ketdi.
- «O'tgan kunlar» romanidagi voqealarga xulosa qilib aytganda romanni o'qigan har bir o'quvchi undagi Otabek, Kumush, YUsufbek hoji, Qutidor, Oftob oyim kabi ijobjiy obrazlardan bahra oladi. Zaynab, Xushro'y, Homid kabi baxil, qora niyatli salbiy obrazlarning taqdiri hamisha shu ahvolga tushushini asar davomida biladi. «O'tgan kunlar» romanini o'qiganda boshdan-oyoq qulog'ingiz ostida voqeа-xodisalar ruhiga mos musiqiy ohang yeshitilib turganday bo'ladi. Bu ohanglar o'quvchi dilida har xil kayfiyatlar uyg'otadi.
- Xullas, «O'tgan kunlar» romani hayot haqiqatlarining xilma-xil qirralarini o'zida mujassam yetgan, sir-sehrga to'la noyob go'zalliklar obidasidir.
-

• **Badiiy tasvir vositalari**

- ***Badiiy tasvir vositalaridan o'xshatish***
- ***1.1. Uslubiyatdagi badiiy tasvir vositalarining nutq madaniyatida tutgan o'rni***
- Badiiy matnda ko'chimlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib ularni ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" deb yuritiladi. "Ko'chimlar deyilganda adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliliginini ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatalishi"⁶ nazarda tutiladi.
- So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan.
- So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan ko'chimlar: a) giperbola b) meyozi.
- So'z ma'nosining sifatiy ko'chishga asoslangan ko'chimlar a) metafora b) metonimiya v) ironiya.
- Boshqa tasvir vositalari mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi. "Simvol, jonlantirish, epitet, apastfora-metaforaning, perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet-metonimiyaning; antifraza, sarkazm-ironianing; litota-meyozisning ko'rinishlaridir.
- Tasviriy vositalarning deyarli barchasida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat tushuncha yotadi.
- Maxsus ifoda tasviriy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga bo'linadi. Maxsus ifoda-tasviriy vositalari tilda obrazlilik, hissiylik keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchining sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Buning uchun esa ma'lum shart-sharoitlar kerak bo'ladi: birinchidan, notiq ifoda tasviriy vositalarning tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan bo'lishi kerak; ikkinchidan , ifoda tasvir vositalariga, nutqni bo'yash, haddan tashqari ko'p o'rinli-o'rinsiz murojaat qilmasligi kerak. Ularning ishlatalish o'rni, payti vazifasini yaxshi tushunish kerak. Aks holda nutq madaniyati buziladi, tinglovchi yoki o'quvchida o'sha nutqga u orqali muallifga nisbatan salbiy munosabat uyg'onishi mumkin.

- Ifodalilik ekspressivlik va aniqlikni ta'minlash niyatida, biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish, o'xshatish yoki so'zlarni shu maqsadda ko'chma ma'noda ishlatish troplar deyiladi.⁷
- Metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, allegoriya, jonlantirish, prafraza kabi usullar ko'chimlarning turlaridir.⁸
- Metafora – narsa-buyum, voqeа – hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi.⁹ Mumtoz adabiyotshunoslikda metafora “isteora” deb yuritiladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim. Lingvistik metafora, xususiy muallif metaforalari mavjuddir.
- Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa. Bunday metaforalar asosan nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda ekspressivlik, binobarin ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi. Masalan: odamning oyog'i – stolning oyog'i.
- Xususiy – muallif metaforalari yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi.
- Metafora va o'xshatish konstruksiyasining o'zoro farqi haqida tilshunoslar o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan.

- 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar ko'chma ma'noda bo'ladi.
- 2. O'xshatishda ikki komponent o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi.
- 3. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi; -dek, - day, - simon, kabi, singari va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi.
- Tilshunoslikda mazmuniy jihatdan metaforalarning uch turi ya'ni odatiy metaforalar, jonlantirish va uslubiy metaforalar farqlanadi.
- Jonlantirish – badiiy nutqda obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarini jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir.
- Tashxis – shaxslantirish. Jonsiz narsalarning insonlarday qilib tasvirlash.
- Jonsiz narsalarga insonlarga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Masalan, “Bebosh yaproqlarning shivir – shiviri, mungli yomg'irkuyi, mayin-harir maysalar, injiq shamol, siz soddagina daraxtlarim va men egilishni eplolmagan asov g'alayon – hammamiz yolg'iz sog'inch bilan bog'langanmiz.
- Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demakdir. Insonlarga xos ba'zi quşurlar, kamchiliklar, narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb atalgan bu ko'chim ham “gapirtirish” usuliga asoslanadi. Intoq jonlantirishda, narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi.
- Uslubiy metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushunchaga o'xshatiladi.

- Masalan: shirin tabassum, shirin gap ,yengil tabassum, yengil nigoh.
- Metonimiya – voqea – hodisa, narsa buyumlar o’rtasidagi o’zaro yaqinlik va bog’liqlik asosida ma’no ko’chishiga aytildi. Masalan: Saroy tinch uyquda tun yarim. Bu misolda saroy so’zi orqali. “Saroydagi odamlar” ma’nosи ifodalangan.
- Sinekdoxa – butun bo’lak munosabatiga asoslanuvchi ma’no ko’chishiga aytildi. Adabiyotlarda “ko’plik o’rnida birlik yoxud birlik o’rnida ko’plik shakllarini qo’llash yo’li bilan ham sinekdoxalar yaratilishi mumkin. Masalan, qo’limni kesib oldim, daraxtlar sarg’aydi birikmalarida butunning nomi bilan bo’lak; tirnoqqa zor, jamoaning qo’li baland keldi kabi birikmalarda qismning nomi butun bilan ifodalananayapti.
- Kinoya deb, til birligini uning haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko’chimga aytildi. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa “ironiya” atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning antifraza (mas’hara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgu, kalaka yo’li bilan inkor qilish) hamda sarkazm (zaharxanda ta’na, istehzoli piching, sha’m) deb ataluvchi ko’rinishlari farqlanadi. Mohir so’z ustasi Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin.
- Parafraza deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsiyal – ekspressivligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan biri. Parafraza deb narsa va hodisani o’z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi- xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalashga aytildi. Masalan: yoshlik sevgi fasli…

- **1.2. Ko'chimlar. Badiiy tasvir vositalaridan o'xshatish va uning qo'llanilishi.**
- O'xshatish- badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektni orazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.
- Sana'tkor qahramonlarni tasvirlashda ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o'xshatishlardan foydalanadi. Ularni konkretlashtiradi, bo'rttiradi. Kitobxonning diqqatini obrazning ko'rinasiga tomonlariga jalb qiladi, asarning g'oyasini ochishga yo'naltiradi.
- O'xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o'xshashligiga aytildi.
- O'xshatish obyekti tasvirlamoqchi bo'lgan predmet, hodisa; o'xshatish obraz- taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviri y vositasi, ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishidir.
- O'xshatishlarni belgilashda asosan ana shu uch belgining roli katta.
- Masalan: Arava g'ijürlab borar, gap mavzudan-mavzuga ko'char, Turg'unoy gapga aralasholmay, bedalar ichida bir bog' bedaday silkinib borar edi. (A. Qahhor, Hikoyalari, 29-bet). Bunda Turg'unoy-obyekt, bir bog' beda-obraz, silkinish-belgisidir. Belgi obyekt va obrazlar bilan alohida bir sintaktik aloqani tashkil etadi.¹⁶
- Tashqi tomondan qaraganda , bir bog' beda bilan odam o'rtasida hech qanday aloqa yo'qdek tuyiladi. Lekin yozuvchi Turg'unoyni gapga aralasha olmasligini va uning aravada silkinib borishini asosiy o'xshashlik belgisi qilib olgan. Belgi (silkinish) asosida ikki predmet bir-biri bilan taqqoslanmoqda. Agar "belgi" (silkinish) bo'lmasa, Turg'unoy bilan bir bog' beda o'rtasida o'xshashlik bo'lmas edi.

- O'xshatishning belgisiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.
- Grammatik belgili o'xshatishlar. Bunda obyekt, obraz va belgilar grammatik-ko'rsatkichi bilan mavjud bo'ladi. Uch belgidan birortasi ham tushib qolmaydi: U (Siddiqjon) o'g'lining yodsiroyotganini ko'rib, ikki qadam olg'a bosdi-yu, bundan ortiq yaqin borsa xuddi bir narsa portlab ketadiganday, engashib bolaning ko'kragiga chiqib ketgan qayiqchasidan ushlab tortdi va ko'tarib oldi. (A. Qahhor, Tanlangan asarlar, 3-tom, 184-bet).
- Bu misolda bundan ortiq yaqin borsa-obyekt, bir narsa portlab ketadiganday-obraz, tortdi va ko'tarib oldi-belgidir.
- Logik o'xshatishlar. Bunda grammatik belgi ko'rsatkich bo'lmaydi. Lekin mazmunan "obyekt" va "obraz"lar bir-biriga mos keladi, ya'ni "obyekt" va "obraz"larning shaklan va mazmunan moslik belgisi obrazning o'zida bo'ladi. Masalan: ...ketmon kichkina, poyteshadekkina kelar edi. (A. Qahhor, Tanlangan asarlar, III tom, 140-bet). Bu misolda ketmon-obyekt, poyteshadekkina-obraz, belgi grammatik nol formada. Lekin mazmundan o'xshatishni anglash mumkin.
- O'xshatish strukturasiga ko'ra oddiy va tizmali bo'lishi mumkin.
- Oddiy o'xshatish terminida bir "obyekt" va "obrazli" o'xshatishlar ko'zda tutiladi. Masalan: ...sarg'imtir kulrang sahro yuzini va undagi past-baland do'ngliklar ustini tutib ketgan odamlar, onda-sonda o'rgimchakday o'rmalab yurgan aravalar ko'rindi. (A. Qahhor, Tanlangan asarlar, III tom, 151-bet). Bu misolda arava-ob'ekt, o'rgimchakday-obraz, o'rmalash-belgi.
- Tizmali o'xshatish deb, biz ikki va undan ortiq "obrazli" o'xshatishning mos kelishini aytamiz: Qori kirdi. U uzoq yo'ldan benihoya charchab kelganday oyoq ustida zo'rg'a turar, yuzi yangi kasaldan turganday so'lg'in va oqorgan bo'lib, chiroqning xira shu'lasida qo'rinchli ko'rinar edi. (A. Qahhor, Tanlangan asarlar, III tom, 224-bet).

- Bu misolda oyoq ustida zo'rg'a turishi, so'lg'in va oqargan bo'lishi-obyekt, uzoq yo'lidan charchab kelganday va yangi kasaldan turganday-obrazlardir. Bu o'xshatishlar bir-biriga obrazli taqqoslanmoqda.
- O'xshatishlarni tarkibiga ko'ra yana to'liq va to'liqsiz o'xshatishlarga ajratish mumkin.
- To'liq o'xshatishlarda qancha "ob'ekt" bo'lsa, shuncha "obraz" bo'ladi. Ya'ni "obyekt" bilan "obraz" teng bo'ladi.
- To'liqsiz o'xshatishlarda esa bir "obyekt"ga "obraz" yoki undan ortiq "obraz"larning taqqoslanishiga, yoki bir "obraz", ikki "obyekt" o'rtasida bo'lib, har ikkala obyektga tegishli bo'ladi. Masalan: O'rmonjonga uchrashmasdan burun sordan qochgan jo'jaday boshini qayerga tiqishini bilmay qolgan Siddiqjon endi dakan xo'rozday mag'rur qadam tashlab borar edi... (A. Qahhor, Tanlangan asarlar, III tom, 183-bet). Bu misolda Siddiqjon-obyekt, sordan qochgan jo'jaday va dakan xo'rozday-obraz, boshini qayerga tiqishni bilmay va mag'rur qadam tashlashbeligidir.
- O'xshatishni chegaralashda asosiy uch ko'rsatkich, ular grammatik tomondan tasnif etish, o'xshatishning badiiy asarlardagi roli va yozuvchining uslubiga bog'liq holda o'rganish masalasi muhimdir.
- O'xshatish strukturasi (material tarkibi) haqida gapirganda yana quyidagi struktural tiplar haqida ham gapirish mumkin.
- O'xshatish oborotlari. Bu o'xshatishning ko'p tarqalgan formasidan biri hisoblanadi. Bu forma ba'zan o'xshatish ergash gaplarga o'xshab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: "o'xshatish oborotlari, sostavlari qancha keng bo'lsa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo'limgani uchun ergash gap bo'la olmaydilar."⁷
- O'n yil burun na'ra tortib chiqqanding
- Vulqon kabi qonga to'lgan yerlardan.



Foydalangan adabiyot:

Ishreja.uz

Ziyonet.uz